

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



TASAVVUF TARIXI VA TARIQATLARNING SHAKLLANISH  
JARAYONLARI  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lif sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar  
Mutaxassislik: 70220503 – Tasavvuf germenevtikasi

TOSHKENT – 2022

Tatemshuee.

O'Brien

Grand

Mary

Fan/modul kodi TVTT1204		O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lif tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari”	48	72	120
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b>			
	<p>“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanning asosiy maqsad va vazifalari Tasavvuf ta'lilotining vujudga kelishi tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning tarkibida vujudga kelgan tariqatlarning shakllanish jarayonlari haqida tasavvuf tarixiga oid manbalar asosida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Tasavvuf ta'rixini islom dini tarixidan ajratib bo'limgani kabi islom tarixini ham tasavvuf tarixidan ajratgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. O'n uch asrlik tarixga ega bo'lgan tasavvuf ta'lomi Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining madaniy-ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan. IX asrdan to XVIII asrgacha arabiylar, forsiy va turkey tillarda tasavvuf ta'rixi va uning tarkibidagi tariqatlar-u silsilalarga oid yuzga yaqin tarixiy asarlar, tazkiralari va manoqiblar bitilgan.</p> <p>“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanning sharqshunos-faylasuflar, tasavvufshunoslari, tarixchilar, filologlar va manbashunos mutaxassislar tayyorlanayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida joriy qilinishi ushbu fanning zarurligini belgilaydi. Zero, bu fan talabalarining Sharq va qo'shimcha ravishda, G'arb tillarini bilishlari tufayli samarali yo'lga qo'yilish imkoniyatiga ega.</p> <p>Bo'lajak tasavvufshunos, faylasuf va tarixchi-manbashunos mutaxassislar “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fani orqali ushbu diniy-falsafiy ta'lilotning vujudga kelishi tarixidan boshlab to turli tariqatlarning shakllanish jarayonlari xususida etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.</p> <p>Quyidagilar “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanning asosiy vazifalari sifatida birligilanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tasavvuf ta'lilotining vujudga kelishi tarixi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari haqida tarixiy manbalar asosida va ma'lumotlar berish;</li> <li>- Tasavvuf ta'lilotining islom dini tarkibida vujudga kelishi sabablari va oqibatlari, uning tarkibidagi yo'nalishlar va tariqatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, tasavvufning islom va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni kabi masalalar xususida yaxlit tasavvur hosil qilish;</li> </ul>			

- irfoniy tafakkurning o‘ziga xosligi va tamoyillari, fanlararo yondashishdan foydalanish;
- Tasavvuf ta’limotining umuminsoniy va ma’rifiy mohiyatini tadqiq etish va ohib berish;
- Tasavvuf ta’limotining sivilizatsion mohiyatini ohib berish;
- Tasavvuf ta’limotining ma’naviy-axloqiy jihatlarini zamonaviy tadqiqot usullari vositasida tahlil qilish;
- mustaqil fikrlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini hosil qilish.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-мавзу: “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining maqsad va vazifalari**

“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining maqsad va vazifalari. “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining tadqiqot ob’ekti – Tasavvuf ta’limoti va unining tarixiy jarayonlari. Tasavvuf ta’limotining vujudga kelishi tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning tarkibida vujudga kelgan tariqatlarning shakllanish jarayonlari haqida tasavvuf tarixiga oid manbalar asosida ma’lumot berish - “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining asosiy maqsad va vazifalari.

#### **2-mavzu: “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fanining tarix, falsafa, din tarixi, dinshunoslik, islomshunoslik va etnologiya fanlari, shuningdek, tasavvufshunoslik turkumidagi barcha fanlar bilan aloqadorligi. Tasavvuf tarixi – Islom dini tarixi va sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida. Tasavvuf tarixi – Musulmon Sharqi mamlakatlari tarixinining bir bo‘lagi sifatida. Tasavvuf tarixi – jahon tarixinining tarkibiy qismi sifatida.

#### **3-mavzu: Tasavvufning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy omillar. Tasavvufni vujudga keltirgan sarchashmalar**

Umaviylar xalifaligi davridagi vaziyat tavsifi. Asl Islomdan chekinish: mol-dunyo, aysh-ishratga berilish, xalifalik tarkibidagi xalqlarning og‘ir ahvoli, g‘ayriarab millatlarni kamsitish. Iymon-e’tiqodli va qalbi uyg‘oq kishilarning bunday illatlarga qarshi e’tiroz sifatida tarki dunyo qilashi va ijtimoiy hayotdan voz kechishi. Natijada Tasavvufning ilk ko‘rinishi – Zohidlikning vujudga kelishi. Tasavvufning asl ildizlari masalasi. Ushbu masalaning hozirgacha Sharq va G‘arb sharqshunos va islomshunoslari o‘rtasida kata qiziqish va bahs-munozaralarga sabab

bo`lib kelayotgani. Qur`oni karim va Hadisi sharif Tasavvufning asl manbalari ekanligi.

#### **4-mavzu: Zohidona tasavvufning vujudga kelishi. Ilk so`fiylar. Islomda zuhd va tarkidunyochilikka munosabat**

Zohidlik (asketizm) – Tasavvufning ilk ko`rinishi. Shu nuqtai nazardan u aksar tadqiqotchilar tomonidan “diniy-asketik oqim” deb atalishi. Lekin bu ta`rif Tasavvuf ta`limotining keyingi 1200 yillik tarixiga mos kelmasligi. Zero, uning Zohidlik davri bor-yo`g`i 60-80 yil davom etganligi. Ilk so`fiylar. Abulhoshim So`fiy, Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy, Yahyo ibn Muoz. Islom dinida tarkidunyochilik va yolg`izlik (uyylanmaslik), tan va nafsga haddan ziyod azob berishning man` etganligi.

#### **5-mavzu: Xonaqoh va zoviyalarning vujudga kelishi. Xonaqohning ijtimoiy-ma`naviy institute sifatida shakllanishi**

Tasavvuf tarixida Xonaqoh (savmaa, zoviya, takya)larning o`rni. Xonaqohning tuzilishi. Xonaqoh odobi (xonaqoh institutining axloq kodeksi). Xilvat va chilla o`tirish (go`schanishinlik).

Tasavvufda “Pir” – “murshid” – “shayx” tushunchalari. Pir (murshid, shayx)ning vazifasi. Pir (murshid, shayx)ning sifat va alomatlar. Murshid va murid odobi. Pir(murshid)ning murid tanlash va muridni sinovdan o`tkazish usullari. Tavajjuh (Pirning muridga qaratilgan diqqat-e`tibori). “Murid” tushunchasi. Murid (solik)ning vazifalari. Sidq va ixlos (Muridning Pirga bo`lgan hurmat va muhabbat). Xizmat (Muridning Pir tomonidan berilgan vazifalarni bekam-ko`st bajarishi). Murshidning ruhiy tarbiya usullari. Pir va murid munosabatlari misolida Ustoz-shogird an`nasi.

Xonaqoh institutida “Xirqa”ning o`rni. Xirqaning turlari: irodat xirqasi; tabarruk (intisob, nisbat) xirqa. Xirqa kiyish odobi (tartibi). Xirqa kiyishning mazmun-mohiyati. Xirqa yondirish sababi.

Xonaqohda zikr talqini. Zikrnning turlari: “zikri xafiy” va “zikri jahriy” sharhi. Qodiriya, Mavlaviya va Yassaviya tariqatlarida zikri jahriy. Xojagon-Haqshbandiya tariqatida zikri xafiy.

#### **6-mavzu: IX-XI asrlarda Tasavvuf tarkibida ilk tariqatlarning vujudga kelishi. Shariat va Tariqat o`rtasidagi ziddiyatlar**

IX-XI asrlarda Tasavvuf tarkibida ilk tariqatlarning vujudga kelishi. Muhosibiya, Hallojiya, Hululiya, Malomatija tariqatlari. Tasavvufda “Hulul va ittihod” masalasi. Ilk so`fiylarning Shariat ahkomiga e`tiborsizligi. Sayru sulukning Tariqat, Ma`rifat, Haqiqatdan iboratligi. Shariat va Tariqat o`rtasida vujudga kelgan ziddiyatlar. Shariat ahlining Tasavvuf ahliga e`tirozları. Tasavvuf ahlining o`ziga nisbatan “Hol ahli”, Shariat ahliga nisbatan “Qol ahli” ta`birlarini ishlatishi.

**7-mavzu: Tasavvufning “Sukr” va “Sahv” yo`nalishlariga bo`linishi.  
Oshiqona tasavvuf bosqichi. Tasavvufda “Illohiy ishq” g`oyasi**

Tasavvuf ta`limoti tarkibida “Sukr” va “Sahv” yo`nalishlarining vujudga kelishi. Boyazid Bistomiy va uning “Sukr” – mastlik (brxudlik) yo`nalishi. Sukr yo`nalishida “vajd” va “jazba” holatlari. Sukr yo`nalishining o`ziga xos xususiyatlari. Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Robiya Basriy, Aynulquzzot Hamadoniy, Hasimiy, Boborahim Mashrab – Sukr yo`nalishi namoyandalar. Shattohlik, shakkoklik, gustoqlik, Shariat ahkomiga nisbatan beparvolik va napisandlik – Sukr yo`nalishining asosiy xususiyatlari.

Junayd Bag`dodiy va uning “Sahv” – hushyorlik yo`nalishi. Sahv yo`nalishining o`ziga xos xususiyatlari. Sahv yo`nalishida Qur'on va Sunnatga qat'iy rioya qilish tamoyili. Junayd Bag`dodiyning bu haqdagi ko`rsatmalari. Xojagon-Haqshbandiya tariqati – Sahv yo`nalishiga asoslangan ta`limot. Shayx Abo'said Abulkayr, Xoja Abdulloh Ansoriy, Imom Muhammad G'azzoliy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, So`fi Allohyor – Sahv yo`nalishi namoyandalar. “Sukr” va “Sahv” yo`nalishlari o`rtasidagi ziddiyat.

**8-mavzu: Tariqatlarning shakilanish jarayonlari. Tariqatlar tarkibida silsila  
va shu`balarning vujudga kelishi**

Tariqat – Tasavvuf ta`limotidagi muayyan bir yo`nalish yoki maktab sifatida. Tasavvuf ta`limoti tarkibidagi mash`hur tariqatlar. Muhibobiya, Malomatiya, Hakimiya, Qodiriya, Xojagon, Yassaviya, Suhravardiya, Kubraviya, Mavlaviya, Chishtiya, Ne`matullohiya, Naqshbandiya va uning shu`balari. Har bir tasavvufiy tariqatning ma`naviy yaqinlik jihatidan silsilaga bog`lanishi. “Silsila” – muayyan bir tariqatning ma`naviy-ruhiy bog`lanishi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatining silsilasi. Silsilai sharif. Naqshbandiya shu`ba (tarmoqlari): Porsoiya, Ahroriya, Mujaddidiya, Kumushxonaviya, Xolidiya.

**9-mavzu: Orifona tasavvuf davri. Tasavvuf tarixida Irfon bosqichi**

Tasavvufning eng oliv taraqqiyot bosqichi – Orifona tasavvuf. Irfon – Tasavvuf falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi. Hakim at-Termiziy – Tasavvuf falsafasi va teologiyasi asoschisi. Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy – Tasavvuf nazariyotchilari. Abu Nasr Sarrojning “Al-Luma” asari. Muhammad G'azzoliy va uning nazariysi: Shariat va Tariqat uyg`unligi. Tasavvufda ma`naviy-ruhiy kamolot bosqichlarining “Shariat – Tariqat - Ma`rifat - Haqiqat” tarzida isloh etilishi. Shahobiddin Suhravardiyyning “Ishroq” falsafasi. Shayx Farididdin Attor ta`limoti. Ibn al-Arabiyning irfoniy-teologik ta`limoti. Mavlono Jaloliddin Rumiy qarashlari. Aziziddin Nasafiyning “Insoni Komil” konsepsiysi. Shayx Najmaddin Kubroning “Olami sag`ir va Olami kabir” konsepsiysi. Hanafiy Tasavvufning rivojlanishi. Xoja Abdulkholiq G`ijduvoniy va Xoja Bahouddin Naqshband ta`limoti. Xoja Muhammad Porso Buxoriy qarashlari. Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlari.

Imom Rabboniy ta'limoti. Mirzo Bedil qarashlari.

#### **10-mavzu: Tasavvufning jug`rofisi mintaqalarga bo`linishi. Tasavvuf maktablari**

*Xuroson va Mavarounnahr tasavvufi* – yagona ma`naviy mintaqal mahsuli. Xuroson va Mavarounnahr tasavvufidagi maktablar: Balx maktabi. Ibrohim Adham. Termiz maktabi. Hakim Termizi. Buxoro maktabi. Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy. Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniy. Xoja Bahouddin Naqshband. Xoja Muhammad Porso Buxoriy. Nasaf maktabi. Abu Turob Naxshabiy. Aziziddin Nasafiy. G`aznin maktabi. Sanoiy G`aznaviy. Nishapur maktabi. Shayx Farididdin Attor Nishopuriy.

*Irog, Shom va Arabiston tasavvufi* – Xuroson Tasavvufi bilan qariyb bir vaqtida shakllanganligi. Basra Tasavvuf maktabi. Hasan Basriy. Robiya Basriy. Makka Tasavvuf maktabi. Abu Tolib maktabi. Bag`dod Tasavvuf maktabi. Junayd Bag`dodiy.

*Hindiston tasavvufi* – Xuroson va Mavarounnahr tasavvuf maktabining izdoshi. Hindistonda Haqshbandiya tariqati. Ahmad Sarhindi (Imom Rabboniy) va uning Mujaddidiya shu`basi. Hindistonda Qalandariya va Malomatiya tariqatlari. Vizantiya va Ispaniya tasavvufi. Shayx ul-Akbar Muhyiddin ibn al-Arabiyning irfoniy ta'limoti.

Tasavvuf maktablari o`rtasidagi umumiylilik va o`ziga xosliklar.

#### **11-mavzu: Xuroson va Mavarounnahr Tasavvuf maktablari. Termiz Tasavvuf maktabi. Hakim at-Termiziy ta'limoti**

Tasavvufning ilk namoyandalari va ulug` oriflari asosan xurosonlik ekanliklari. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy, Yahyo ibn Muoz, Boyazid Bistomiy, Shayx Shibliy, Junayd Bag`dodiy, Mansur Halloj, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Abu Said Abulxayr, Shayx Farididdin Attor, Abulmajd Sanoiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Shayx Shahobiddin Suhravardiy...ning eroniy xalqlar vakili bo`lganligi. Xuroson va Mavarounnahrning asosan sunniy (Hanafiy) Tasavvufda bo`lganligi va boshqa mushtarak jihatlari. Nishapur Tasavvuf maktabi, Hirot Tasavvuf maktabi, Hamadon Tasavvuf maktabi, Balx Tasavvuf maktabi, Termiz Tasavvuf maktabi, Buxoro Tasavvuf maktabi, Nasaf Tasavvuf maktabi. Hakim at-Termiziy ta'limoti. “Valoyat” nazariyasи.

#### **12-mavzu: Buxoro Tasavvuf maktabi. Kalobodiy va Mustamliy merosi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatining Tasavvuf ta`limoti rivojidagi o`rni**

Buxoro Tasavvuf maktabi. Kalobodiy va uning “Kitob at-Ta`arruf” asari. Mustamliy Buxoriy va uning “Sharh at-Ta`arruf li mazhab it-Tasavvuf” asari. Xoja Yusuf Hamadoniy va uning xalifalari. Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniy va uning ma`naviy merosi. Xoja Bahouddin Naqshband ta`limoti. Naqshbandiya – Tasavvufning eng so`nggi mukammal tariqati. Naqshbandiyadagi 11 usul.

Naqshbandiya ta'limotining ijtimoiy mohiyati. Xoja Ahrori Valiy va Mavlono Jomiy ma'naviy merosi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatining Tasavvuf ta'limoti rivojidagi o'rni.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari" fanining maqsad va vazifalari.
2. "Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Tasavvufning vujudga kelishiga sabab bo'lgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy omillar. Tasavvufni vujudga keltirgan sarchashmalar.
4. Zohidona tasavvufning vujudga kelishi. Ilk so'fiylar. Islomda zuhd va tarkidunyochnilikka munosabat.
5. Xonaqoh va zoviyalarning vujudga kelishi. Xonaqohning ijtimoiy-ma'naviy institute sifatida shakllanishi.
6. IX-XI asrlarda Tasavvuf tarkibida ilk tariqatlarning vujudga kelishi. Shariat va Tariyat o'tasidagi ziddiyatlar.
7. Tasavvufning "Sukr" va "Sahv" yo'naliшlariga bo'linishi. Oshiqona tasavvuf bosqichi. Tasavvufda "Illohiy ishq" g'oysi.
8. Tariqatlarning shakllanish jarayonlari. Tariqatlar tarkibida silsila va shu'balarining vujudga kelishi.
9. Orifona tasavvuf davri. Tasavvuf tarixida Irfon bosqichi.
10. Tasavvufning jug'rofiy mintaqalarga bo'linishi. Tasavvuf maktablari.
11. Xuroson va Movarounnahr Tasavvuf maktablari. Termiz Tasavvuf maktabi. Hakim at-Termiziyy ta'limoti.
12. Buxoro Tasavvuf maktabi. Kalobodiy va Mustamliy merosi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatining Tasavvuf ta'limoti rivojidagi o'rni.

Amaliy darslarni uyuştirish bo'yicha kafedraning professor va o'qituvchilarini tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'riqlari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari**

Magistrant mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlaridan kurs mavzularini o'rganish;
- xat, hujjat, yozishmaga oid mavzularni o'zlashtirish;
- shartnomalar tuzish, muzokara olib borish, yuqori darajadagi suhbatlarda ishtirok etish.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi.
2. Tasavvuf ta'limotining asosiy sarchashmalari.
3. Tasavvuf ta'limotining taraqqiyot bosqichlari.
4. Tasavvuf ta'limotining shakllanishi.
5. Tasavvuf va Islom dini: Shariat va Tariqat munosabatlari.
6. Tasavvuf tarixida zohidlik davri.
7. Zohidona va obidona tasavvuf bosqichi.
8. Tasavvuf va esketizm.
9. Tasavvuf va mistitsizm.
10. Tasavvufda tariqatlarning vujudga kelishi.
11. Tasavvuf tarixida "Sukr va "Sahv" yo'nalishlarining vujudga kelishi.
12. Oshiqona tasavvuf davri.
13. Orifona tasavvuf davri.
14. "Sukr" yo'nalishining asosiy g'oyasi.
15. "Sahv" yo'nalishining asosiy g'oyasi.
16. Mansur Halloj va uning qismati.
17. Junayd Bag'dodiyning tasavvuf tarixidagi o'rni.
18. Ilk tasavvufiy manbalar.
19. Tasavvuf tarixiga oid ilk manbalar.
20. Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari – tasavvuf tarixiga oid manba.
21. "Tabaqot us-sufiya" asari – tasavvuf tarixiga oid asar.
22. Oshiqona tasavvufning o'ziga xos xususiyatlari.
23. Orifona tasavvufning o'ziga xos xususiyatlari.
24. Tasavvuf va tashqi ta'sirlar masalasi.
25. Tasavvuf va sahobalar masalasi.
26. Tasavvuf va Ashobi suffa masalasi.
27. "Tasavvuf" so'zining kelib chiqishi.
28. "So`fiy" so'zining kelib chiqishi.
29. Termiz tasavvuf maktabi.
30. Tasavvuf maktablari.
31. Tasavvufning mintaqalarga bo'linishi.
32. Xuroson va Mavarounnahr tasavvufi.
33. Iroq, Shom va Arabiston yarim oroli tasavvufi.
34. Afrika va Ispaniya tasavvufi.
35. Hindiston yarim oroli tasavvufi.
36. Tasavvuf ta'limotining rivojlanishi va tarqalishi.
37. Tasavvuf ta'limotini vujudga keltirgan sarchashmalar muammosi.
38. Buxoro tasavvuf maktabi (Kalobodiy va Mustamliy).

	<p>39. Hakim at-Termiziyning tasavvuf tarixidagi o`rni.          40. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tariqatlar.</p> <p>Mustaqil o`zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, ijodiy ishlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsya etiladi.</p> <p><b>Fan bo'yicha kurs ishi.</b> Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida</b></p> <p><i>Magistrant:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>“Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari” fani bilan bog'liq bo'lgan turli xil ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i> va ular haqida aniq <i>fikrlay olishi</i>;</li> <li>yirik tasavvufshunos olimlarining Tasavvufning vujudga kelishi tarixi, taraqqiyot bosqichlari va tariqatlarning shakllanish jarayonlari haqidagi g'oya va konsepsiylari bilan <i>tanishgan bo'lishi</i>;</li> <li>Tasavvuf ta'limotining asoslarini tushuntirib berishda falsafiy metodlardan <i>foydalana olishi</i>;</li> <li>Markaziy Osyo mintaqasi tasavvuf tarixiga oid manbalarni bilish, tarjima va tahlil qila olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>ushbu fandan olgan bilimini amaliyotda tatbiq eta bilishi, manbalarda aksini topgan tasavvuf tarixiga oid asarlarni to'g'ri tarjima va tahlil qila olish, ulardan o'zi uchun foydali xulosalar chiqara olishi, olgan bilimini ta'lim jarayoniga joriy qila olish <i>malakalariga ega bo'lishi lozim</i>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>guruhlarda ishslash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>individual loyihibar;</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Abdulloyev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Termiz, 2007.</li> <li>Komilov, Najmiddin. Najmiddin Kubro. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995.</li> </ol>

3. Komilov, Najmiddin. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, “O’zbekiston”, 2009.
4. Polatov H, Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi, 2011.
5. Trimingem Dj. Sufiysiye ordeni v islame. –M.: Sofiya ID Gelios, 2002. – 480 s.
6. Turar, Usmon. Tasavvuf tarixi. / Turk tilidan Nodirxon Hasan tarjimasi. – T.: “Istiqlol”, 1999.
7. Usmonov I. Tasavvuf. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: Toshkent islam universiteti, 2012.
8. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy. Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy. – T.: “Yangi asr avlodni”, 2003.
9. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. 2.Risolai validiyya. / Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.: “Adolat”, 2004.
10. Xolmo’minov, Ja’far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
11. Xolmo’minov, Ja’far. Vahdat ul-vujud falsafasi va uning Naqshbandiya ta’limotiga ta’siri (Ibn al-Arabiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). –T.: “Tafakkur”, 2020. 324 b.
12. Xolmo’minov, Ja’far. Qiyosiy tasavvufshunoslik. (Monografiya). – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 266 b.

#### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. “Taqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: “O’zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. –T.: “O’zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olilianob xaiqimiz bilan quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. - 488 b.

#### **Axborot manbalari:**

1. islam.uz
2. muslim.uz
3. ziyouz.com

7. O’quv dasturi “Manboshunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_” -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O’quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022\_- yil “30” 06 dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

<b>8.</b>	<b>Fan/modul uchun mas'ul:</b>  Xolmo'minov Ja'far Muhammadiyevich – TDSHU "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).
<b>9.</b>	<b>Taqrizchilar:</b>  Mirsodiq Is'hoqov – tarix fanlari doktori, professor, TDSHU, "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi mudiri; Ozodbek Xomutaliyev – TDSHU, "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi o'qituvchisi.